

## AYRIM SIYOSIY MANIPULATIV TEXNOLOGIYALAR VA KO'RINISHLARI

O'ktamjon Yuldashev

*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Jahondagi siyosiy sahnida kuzatilayotgan o'zgarishlarning bir qismi ayrim gegemon kuchlarning g'arbiy bo'lмагan davlatlarning siyosiy rejimini o'zgartirish texnologiyalarini qo'llash usullari va bunday usullarining tobora kengayib borayotgani bilan tavsiflanadi. Bu masalalar ilmiy va ommaviy muhitda keng muhokama qilinmoqda. G'arbiy bo'lмагan tipdag'i davlatlar atamasi ma'lum bir hudud va jamiyat uchun an'anaviy tarzda saqlanib qolgan va G'arb liberal demokratiya me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan siyosiy va davlat apparati qurilishiga ega bo'lgan davatlarni anglatadi. O'z navbatida, bu (liberal-demokratik) me'yor va standartlar Yevroatlantika mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zaro munosabatlarning asosi hisoblanadi.

Bu o'rinda siyosiy hokimiyatni demontaj qilish usullari va texnologiyalarini sanab o'tish juda murakkab va mushkul masaladir. Rangli inqiloblarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari bilan bog'liq muammolarni o'rganish natijasida biz quyidagi texnologiyalar turlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin, ular: targ'ibot va axborot-psixologik texnologiyalar, harbiy kuch texnologiyalari, moliyaviy-iqtisodiy texnologiyalar, muxolifat yetakchisini shakllantirish texnologiyalari (norozilik harakati).

Targ'ibot va axborot-psixologik texnologiyalar inson va jamiyat ongiga ta'sir qilish rangli inqiloblarni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir. Ularning aksariyati xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari, internet (bloglar va ijtimoiy tarmoqlar), turli jamoat tashkilotlari, harakatlar, siyosiy partiyalar, ommaviy pop madaniyat (kino, shou-biznes), yoshlar submadaniyatlari, sektalar va boshqalar orqali amalga oshiriladi. So'nggi kuzatishlar ko'rsatishicha, bunday tipdag'i NNTlar majburiy demokratlashtirishning asosiy markazlariga aylanib bormoqda va ular vositasida muayyan davlat ichida tashviqot olib boriladi. "Majburiy demokratlashtirish" deganda davlat va jamiyat asoslarini yagona liberal-demokratik mezon ostiga zo'rlik bilan olib kirish va siyosiy hokimiyatni tashqi markazga o'tkazish tushuniladi.

A. E. Gapich va D. A. Lushnikovlarning fikricha, "NNTlar rangli inqiloblarning yetakchi kuchlaridan biridir. Bu davlat to'ntarishlarini "nohukumat tashkilotlarining inqiloblari" deb atasa ajab emas. Masalan, rangli inqiloblar amalga oshirilgan davrda Ukraina Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2004 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 399 xalqaro tashkilot, 421 xalqaro maqomga ega xayriya tashkiloti, xorijiy davlatlarning nodavlat jamoat tashkilotlarining 179 tarkibiy bo'linmalari ro'yxatga olingan[1.33]. Bu kabi nodavlat notijorat tashkilotlarini yaratish tashabbusi xorijdan keladi va ularni moliyalash ham xorijiy tuzilmalar tomonidan ta'minlanadi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Tadqiqotchilarining fikricha, aksariyat xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri muxolifat va mahalliy norozilikni uyushtiruvchi tashkilotlar, harakatlar va tarmoqlarni "himoya qilish", ularga tashqi ko'mak orqali faoliyatini qonuniylashtirish – "xalqaro hamjamiyat" fikri manbaidir. Ammo shuni qo'shimcha qilish kerakki, nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifalari nafaqat muxolifat kuchlariga

homiylik qilish hisoblanadi, shuningdek, ular norozilik tuzilmalari va harakatlarini yaratadi, moliyalashtiradi va rivojlantiradi, o‘z a’zolarining axborot-psixologik va mafkuraviy “qayta ishlanishini” ta’minlaydi, norozilik mafkurasini noxolis ommaviy axborot vositalari va internet resurslari orqali tarqatadi. Shunday qilib, muxolifat koalitsiyasi tuziladi, bu amalga oshirish texnologiyalar ma’lumotlar soni turli ijtimoiy-siyosiy partiyalar, guruhlar va harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin[2.35].

Nodavlat notijorat tashkilotlari ommaviy ongga manipulyatsiya yo’llari bilan ta’sir ko’rsatish kanallaridan biri hisoblanadi. Axborot-psixologik va tashviqot texnologiyalaridan foydalanish gegemon kuchlar va uning ittifoqchilari tomonidan demokratiyaning tranziti va butun dunyo davlatlarida demokratik institatlarni mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va konsepsiylar doirasida amalga oshiriladi. Misol uchun, 2007 yilgi Demokratiyani rivojlantirish to‘g’risidagi qonun, AQShning xavfsizlikni kuchaytirish to‘g’risidagi qonunchiligining bir qismidir yoki AQSh Qurolli Kuchlarini rivojlantirish strategiyasi to‘g’risidagi “Yagona istiqbol – 2020” hujjatida aks ettirilgan harbiy harakatlarda «axborot ustunligi» konsepsiyasida axborot sohasidagi ustunlik muvaffaqiyatli o’tkazishning asosiy omillaridan biri ekanligi ta’kidlangan[3]. Bu axborot-psixologik, kommunikativ va manipulyatsiya operasiyalari butun dunyoda siyosiy rejimlarni o‘zgartirishning samarali vositasiga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Masalan, “Arab bahori” inqiloblari, Yugoslaviya (1991–2001) va Ukrainadagi (2004, 2013–2014) voqealari norozilik mafkurasini shakllantirishda ommaviy ongga ta’sir qilish uchun axborot va psixologik texnologiyalardan foydalanish asosiy rollardan birini o‘ynaganligini ko’rsatdi. Shu bilan birga, tashviqot ta’sir kanallari ham har xil edi. “Ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan qattiq nazorat qilingan Misrda “oshkor qiluvchi” (norozilik uyg’otuvchi) ma’lumotlarni tarqatish uchun internet, asosan ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilgan. Odamlarni maydonga chiqqib, korruption hukumatga qarshi norozilik bildirishga chaqirilgan edi. Hech kimga sir emaski, korrupsiya har qanday mamlakatda mavjud va hamma joyda kambag‘al va boylarga bo‘linish mavjud. Tabiiyki bu o‘rinda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad - passiv norozilikni faol norozilikka aylantirish”[4.65] edi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday davlatda mavjud bo‘lgan muammolar va qarama-qarshiliklar professional ma’lumotlar va psixologik manipulyatsiyalar yordamida qayta «qo‘zg’atiladi». Yoki Yugoslaviya urushlari paytida «G‘arb mintqa ahonisini «yovvoyi Bolqonliklar», bir-birini behuda kesadigan vahshiylar sifatida ko’rsatuvchi kuchli targ‘ibot kampaniyasini olib borildi va shu tariqa bu mojarolarning asl sababini - o‘ylangan va rejalashtirilgan qulashini yashirdi.

Shu nuqtai nazardan, bugungi voqelik har qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta’minalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Axborot xavfsizligini ta’minalash masalasining dunyo miqyosida qizg‘in muhokama qilinayotgani ham beziz emas. Bunday muhokamalarda axborotning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy rolini ta’kidlash bilan bir qatorda, undan xalqaro barqarorlik va xavfsizlikka ziyon yetkazish maqsadida foydalanish holatlari keskin qoralanmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan jinoyatkorona va terroristik maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi haqida bong urilmoqda. O‘z taraqqiyotining murakkab, o’tish bosqichini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun bu

muammo alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki mamlakat manfaatlariga zid axborot xurujlari bu mamlakatlar uchun ayniqsa xavfli va halokatli tus oladi[5.163].

Kievda Ukraina va xorijiy ommaviy axborot vositalari Maydan himoyachilarini sharaflash va himoyalash uchun faol ishladilar. “Maydanda yoshlarning ko‘pligi muxolifat siyosatchilari va ommaviy axborot vositalariga: “U yerda bolalar bor, ularni kaltak bilan urib bo‘lmaydi!” deyishlariga imkon berdi[6.67]. Namoyishchilarining o‘zları qonun va tartib himoyachilariga tosh va molotov kokteyllari uloqtirgan. Ushbu tadbirlarda biz J.Nay tomonidan shakllantirilgan “yumshoq” va “aqli kuch” tushunchalarining amaliyotga tatbiq etilishini kuzatamiz. “AQSh va uning ittifoqchilari xavfsizligini ta’minalash, shuningdek, mamlakatda va chet elda liberal demokratiyani rag’batlantirish uchun demokratiyani targ‘ib qilish eng yaxshisi jalg qilishning «yumshoq kuchi» orqali va terrorizmga qarshi kurashda «qattiq kuch» yordami, amalga oshiriladi, - Qo’shma Shtatlar terrorchilarga qarshi «qattiq kuch»dan foydalanishi kerak, ammo musulmonlarning asosiy qismi biz tomonda bo‘lsada qalbi va ongi egallamaganimizcha g‘alabaga umid bog‘lay olmaymiz”[7.444]. Bu tom ma’noda, dastlab liberal-demokratik qadriyatlarni “eksport qiluvchi” davlatlar katta moliyaviy va intellektual resurslarni sarflab, targ‘ibot-tashviqot va psixologik omma ongini mafkuraviy nazorat qilishga erishish bo‘yicha operasiyalar, so‘ngra liberal g‘oyalar tarafdarlarining o‘zları “qattiq kuch” va qurol yordamida qolgan aholini yangi siyosiy yo‘nalishning to‘g‘riligiga “ishontirishga” qilgan harakati edi. E. G.Ponomarevaning fikriga ko‘ra, “yumshoq kuch” strategiyasini amalga oshirishning bunday usullari boshqa davatlarning ichki siyosatiga bevosita aralashishdir[8].

Alovida psixologik bosim diniy tashkilotlar bilan munosabatlarni o‘rnatishdir. «Ukrainadagi voqealar Eversorlar (tashkilotchilar) va muxolifat tuzilmalari faollari va yangi diniy tashkilotlar rahbarlarining (Ukraina misolida, Pyatdeyatniki diniy jamoalari) birgalikdagi faoliyati uchun mumkin bo‘lgan sohalarni namoyish etadi. Bu, birinchi navbatda, norozilik tashviqoti va tashviqot materiallarini tarqatish uchun diniy tashkilotga (“diniy tarmoq marketingi” texnologiyalari) qo‘shilish tajribasidan foydalanishni namoyon qildi[9.40].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, siyosiy rejimni o‘zgartirishda axborot, psixologik va targ‘ibot texnologiyalarining ahamiyati to‘g‘risidagi xulosa mantiqan to‘g‘ri keladi. Turli ijtimoiy guruhlar fuqarolarining katta qismi ularning ta’siri ostida bo‘ladi. Madaniy, ruhiy, ma’naviy, axloqiy, an’anaviy, diniy va tarixiy ijtimoiy-siyosiy va davlat shakllari bo‘yicha G‘arb davlatlaridan tubdan farq qiladigan davlatlarda (va jamiyatlarda) G‘arbiy Yevropa tipidagi yangi liberal-demokratik mafkura shakllanmoqda. G‘arb liberal-demokratik mafkurasi jamiyatning bir qismi ongida mutasiyaga uchrasa, ikkinchi qismi butunlay rad etilgan[10.400]. Natijada, biz fuqarolar urushlari, diniy ekstremizm, haddan tashqari millatchilik va genotsid kabi mafkuraviy ekspansiyaning oqibatlariga duch kelamiz.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha guruhlarning texnologiyalarini joriy etish - texnik, moliyaviy va intellektual yordamni talab qiladi. Ommaviy ongi manipulyatsiya qilish bo‘yicha yuqori professional operasiyalarni amalga oshirish, davlat organlari ishiga to‘siq qo‘yish, hokimiyat bilan keng ko‘lamli qurolli qarama-qarshilikni tashkil etish, shuningdek, bu jarayonlarni moliyalashtirish yorqin rivojlangan texnologiyalar va tajribali siyosiy texnologlar mehnatidan dalolatdir. Ob’ektiv sabablarga ko‘ra, bunday texnikani

rivojlantirish va ushbu darajadagi yuqori malakali mutaxassislarning paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlarni rangli inqiloblar amalga oshirilgan mamlakatlarda shakllantirish mumkin emas edi. Shunday ekan, majburiy demokratlashtirish texnologiyalaridan foydalanish va demokratiyani eksport qilish ayrim gegemon kuchlar yoki davlatlar tashqi siyosat strategiyasining o'ziga xos belgisidir, degan xulosaga kelish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Гапич А. Э. Технологии цветных революций. М.: РИОР: ИНФРА-М, 2014.
2. Димлевич Н. Национальные интересы России в области информационного противоборства // Международная жизнь. URL: <http://interaffairs.ru/print.php?item=7632>.
3. Захаров А. В. Технологии манипуляций // На пороге глобального хаоса. Битва за будущее / Общ. ред. и сост. А. И. Фурсов, С. А. Правосудов. М.: Книжный мир, 2015. С. 65.
4. Холбеков А., Жумаев Р., Умарова Н. ва бошқалар. Бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий йўналишлари –Тошкент, F.Фулом номидаги НМИУ, 2008. – Б.163
5. Захаров А. В. Технологии манипуляций // На пороге глобального хаоса. Битва за будущее / Общ. ред. и сост. А. И. Фурсов, С. А. Правосудов. М.: Книжный мир, 2015. С. 67.
6. Най Дж. Будущее власти / Дж. Най; пер. с англ. В. Н. Верченко – М.: ACT, 2014. – 444 с. С. 375.
7. Пономарева Е. Привилегия проводить независимую внешнюю политику // Международная жизнь.URL:<http://interaffairs.ru/read.php?item>
8. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар – Тошкент, ЎзФМЖ нашриёти, 2014. – 400 б.